

## DO‘PPIDO‘ZLIK SAN‘ATI TARIXI

Ruziqulova Zebiniso Jurabek qizi

*Buxoro viloyati*

*Shofirkon tumani 20-maktab „Texnologiya“*

*fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining milliy liboslari tarixi haqida hikoya qilinadi.*

**Kalit so‘zlari:** *Libos, urf-odat, milliylik, hunarmand, marosimlar.*

Xalq amaliy san‘atining eng ommabop va keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lgan do‘ppi erkaklar, ayollar va bolalar milliy kiyimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbek xalqining milliy kiyimlari orasida do‘ppining ham o‘z tarixi mavjud bo‘lib, u uzoq davrlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 519-yilga oid deb hisoblangan, Behustun qoyatoshiga o‘yib tushirilgan bo‘rtma odam suratlaridan birining bosh kiyimi hozirgi do‘ppimizga juda o‘xshar ekan.

Marg‘ilon va Chust (tus) do‘ppilarining tarixi Xitoy, xususan Buyuk Ipak Yo‘li bilan bog‘liq. Ola do‘ppi o‘zbek madaniyatini Xitoy va butun sharq xalqlari madaniyati bilan bog‘lasa, iroqi do‘ppilar esa uzoq g‘arb mamlakatlari, Iroq madaniyati bilan bog‘laydi.

Do‘ppimizning to‘rt tomoni falakning to‘rt burjidir. Tomonlarga chizilgan naqshlar burjlardagi yulduz, oylar aksidir. Bu do‘ppiga ega xalq falakka yaqin xalqdir.

Do‘ppilar qadimdan o‘zbek badiiy kashtachilik merosining ajralmas durdonasi va xalq amaliy san‘atining o‘ziga xos go‘zal turlaridan biri hisoblanadi. Do‘ppilarning qachon paydo bo‘lganligi, uning ilk ijodkori haqida biror-bir aniq ma‘lumot yo‘q. Faqat eramizdan ming yillar avval ahamoniylar davrida O‘rta Osiyoda “sakatigraxiada” degan qabila yashaganligi va bu atama tepasi cho‘nqaygan bosh kiyim kiygan saklar”, - degan ma‘noni bildirganligi haqidagi tarixiy ma‘lumotlarga duch kelamiz. Demak, do‘ppilar juda qadimgi bosh kiyimlardan biri ekan. Bunday shaklga yaqin bosh kiyim turlari yaqingacha saqlanib qolgan. Bunga misol qilib tepasi uchli Buxoro do‘ppilarini, tepasi uzunchoq Shahrisabz gilam do‘ppilarini, Xorazmda keng tarqalgan xorazm takiyalarni, ularning takomillashgan turlari deb atash mumkin.

Do‘ppini eslatuvchi bosh kiyimlarning qadim o‘tmishda mavjud bo‘lganligini tasdiqlovchi dalillarni arxeologik yodgorliklar, devoriy yozuvlar, terrakota haykalchalar, XV XVI asrlarga oid sharq miniatyuralarida ko‘rishimiz mumkin. Movarounnahr (XV XVII asrlar) va Samarqand (XVI asrning birinchi yarmi) miniatyuralarida ayollarning turli-tuman bosh kiyimlari uchraydi.

Dastlab do‘ppilar konussimon va keng hoshiyali bo‘lgan, ularni salla ostidan kiyishgan. Keyinchalik o‘tkir uchli, konussimon, yarimsharsimon, dumaloq, to‘rt qirrali do‘ppilar tikila boshlangan. Do‘ppilarning keng tarqalgani to‘rt qirrali, bir oz konussimon shakldagisi hisoblanadi. Bezaklarning ko‘plab kompozitsiyalari mavjud bo‘lib, ular avloddan-avlodga o‘tib, doimiy ravishda yangilanib borgan. Do‘ppilarni bezatishning asoslari xalqimizning ma‘naviy hayoti, xulq-atvori va poetik dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liqdir.

Do‘ppilar ikki yoki uch qat matodan tayyorlanib, paxta yoki ip bilan mustahkam qilib tikiladi. Ko‘p hollarda tayyor do‘ppiga ipak, zar yoki kumush iplarda kashta tikilgan. Qora taglikka kashta tikish XIX asr oxiri-XX asr boshlarida asosan Toshkentda, qisman Farg‘onada paydo bo‘ldi, chunki

bu paytda Rossiyadan Markaziy Osiyoga ko‘plab qora rangdagi gazmollar keltirila boshlanib, tanlash uchun keng imkoniyat yaratilgan edi.

Do‘ppi tikish san‘ati bilan azaldan asosan, xotin-qizlar shug‘ullanib kelishgan, ko‘pchilik naqshlarni ular yaratishgan. Har bir chevar nafaqat ma‘lum bir andozani takrorlagan, balki tez-tez o‘zicha naqsh kompozitsiyasini va rang-tusini o‘zgartirib, do‘ppiga alohida husn bag‘ishlagan. Shunday qilib, an‘analashgan sari bu san‘at avloddan-avlodga o‘tib, do‘ppilarning kashtalarida rang-barang va betakror naqshlar paydo bo‘lib borgan. U yoki bu mintaqada do‘ppilarning muayyan tipi yaratilishiga faqat tabiiy shart-sharoitlar emas, balki shu mintaqada vujudga kelgan va saqlanib qolgan an‘analar, xo‘jalik va madaniyat rivojlanishining umumiy darajasi ham ta’sir ko‘rsatgan. Farg‘ona vodiysi, xususan, Chust, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlarida tayyorlangan do‘ppilar kelib chiqishiga ko‘ra dastlabki do‘ppilar hisoblanadi. Tepa qismi chorsi bo‘lgan bu do‘ppilar taxlanganda uchburchak shaklga kelgan. Bu do‘ppilarga ular yaratilgan shaharlarning nomlari qo‘shib aytilgan: —tus (Chust) do‘ppi”, “qo‘qon (Qo‘qon) nusxa”, —andijon (Andijon) nusxa” va h.k.

Mahalliy do‘ppilarning 5 ta asosiy guruhi farqlanadi: Toshkent, Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm. Har bir maktabning ayrim turlarida juda aniq mahalliy farqlar sezilib turishiga qaramay, har bir guruh asosida umumiy uslub xususiyatlari, naqshning umumiy motivlari yotadi.

Qariyalar kiyishiga mo‘ljallangan Andijon do‘ppilarining matosi oq satindan, astari oq bo‘z yoki satindan tayyorlangan. Kizagi jiyaksiz bo‘lib, vertikal bo‘ylab, tepasi esa gorizantal bo‘ylab zich qilib mashinada choklangan. Astari va avrasining orasiga karton qog‘oz qo‘yilgan. Qo‘l chokida kashta tikilib, uni tikishda ipak iplar ishlatilgan. Shakli to‘rt tomonli, tepasi unchalik baland emas (8-10 sm), kizagi esa baland (7-8 sm). Tepa qismining bir-biriga qarama- qarshi tomonlariga bir xil rangli ipaklar bilan gul barglarining, gul rasmi tikilgan. Kizagining to‘rttala tarafiga bir xil gul barglari tikilgan.

Qizlar kiyishiga mo‘ljallangan do‘ppilarning matosi baxmal bo‘lgan, asosan, siyoh rangli, jigar rangli baxmal ko‘p ishlatilgan. Astariga satin, bo‘z matolar tanlangan. Kizagining chetiga qora baxmaldan jiyak tikilgan. Bunday do‘ppilar “piltado‘zi” texnikasida tayyorlangan, shakli to‘rt qirrali, tepasi va kizagi uncha baland bo‘lmagan.

Ayollar kiyishiga mo‘ljallangan do‘ppilarning yana bir turi mavjud bo‘lib, uning matosiga oq parcha tanlangan, astari satin, kizagining chetiga qora baxmal jiyak tikilgan. Do‘ppilarga qo‘l kashta usulining “xomdo‘zi” chokida ipak iplar bilan kashta tikilgan. Shakli to‘rt qirrali bo‘lib, tepasi yassi, kizagi ham baland bo‘lmagan. Unda kashta nusxasining “chorgul” kompozitsiyasi qo‘llanilgan. Tepa qismi siniq chok orqali to‘rt karjga ajratilgan. Har bir karjga bir xil gul g‘unchalari joylashtirilgan va ba‘zan ular orasiga yozuvlar qo‘shib tikilgan. Erkaklar kiyishiga mo‘ljallangan do‘ppilarning matosi qora ipak, astari satin, kizagining chetiga yarim ipakdan tayyorlangan tasma - jiyak tikilgan.

XX asrning 30 yillarida Farg‘ona do‘ppichiligida “chust nusxa” do‘ppi yaratilgan. U o‘zining sipoligi, qulayligi ko‘rkamligi bilan O‘zbekistonning hamma viloyatlariga keng tarqalgan. Bunday do‘ppilar erkaklar, yigitlar kiyishiga mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay, sevimli do‘ppilardan biri bo‘lib kelmoqda. Chust do‘ppilarning go‘daklar va yosh bolalarga mo‘ljallab tikiladigan nusxalar ham bor. Chust do‘ppilari to‘rt karjli bo‘lib, asosan qora, mosh rang, to‘q ko‘k satin (las)dan tayyorlangan. Karj chiziqlari bo‘rtib turadi. Tepa qismining har bir bo‘lagining bittadan qalampir nusxasi tushirilgan gul tikilgan. Chust do‘ppilarning yirik va yo‘g‘onroq bo‘lgan. Kizak qismining pastgi tomonida eni 0.5 sm li chamak choki ostida qoldirib tikilgan. Uning ustiga esa katta-

kichik gul tikilgan. Kizak qismining har bir tomoniga to‘rttadan gul joylangan. Gullarni to‘g‘ri joylashtirish uchun tepa qismining gullari, kizak qismining gullariga ham gul qoliplari tayyorlab olingan. Gullar shu qoliplar yordamida chizilgan.

Farg‘ona do‘ppichiligida erkaklar uchun mo‘ljallangan chust do‘ppilaridan keyin ularga o‘xshatma qilib marg‘ilon do‘ppilari yaratildi. Marg‘ilon do‘ppilariga ham asosan qora rangdagi satin va ipak matolar, astariga paxta mato ishlatilgan.

Kashta naqshlariga gul tikish ham o‘ziga xos kashta yo‘llari bor. Bunda “bakir-bukir”, “taroq”, “pildiroq”, “nimpildiroq”, “barg”, “kulcha” va boshqa gul nusxalar ishlatilgan. Gullar oq ipakda tikilgan. Ularning tagiga naqsh chiziqlari bo‘ylab namga chidamli qog‘oz, ipak va sun‘iy materiallardan tayyorlangan maxsus to‘shamalar qo‘yilgan. Gullar tikib bo‘lingach, do‘ppining avra-astarini bir-biriga joylab, pilta chiziqlari tikib chiqilgan. Pilta yo‘llari ham o‘ziga xos qoida va me‘yorlar asosida tikib tayyorlangan. Do‘ppining tepa va kizak qismi piltalangan. Ularga ingichka qilib qirqilgan pilta qog‘oz qo‘yilgan. So‘ng tepa qismi bilan kizak qismi ulangan. Oxirida jiyagi qadalgan. Do‘ppilarning jiyagi maxsus jiyak dastgohlarida qora ipaklardan tayyorlangan.

Hozirgi kungacha do‘ppido‘z chevarlar tomonidan chust do‘ppilarning ko‘plab yangi nusxalari yaratilgan va bunday do‘ppilarning yaratuvchilarning didi, mehri va mahorati natijasi haqiqiy san‘at darajasiga yetkazildi. Chust do‘ppilarning “zira” nusxasini andijonliklar sevib kiyishsa, namanganliklar ko‘proq “injiq” nusxani yaxshi ko‘rishadi. Chust do‘ppilari marg‘ilon do‘ppilariga qaraganda chuqurroq ko‘rinishda bo‘ladi.

Marg‘ilon do‘ppilari Chust do‘ppilaridan keyin ularga “o‘xshatma” qilib yaratilgan. Marg‘ilon do‘ppilari ham, asosan qora, to‘q ko‘k, mosh rang satin (las) yoki shoyidan tayyorlangan. Marg‘ilon do‘ppilarning ham tepa qismi teng to‘rt bo‘laklarga ajratilib, to‘rt karjiga to‘rt dona qalampir nusxa tikilgan. Marg‘ilon do‘ppisi ham qalampir nusxasi chust do‘ppisinikiga nisbatdan ingichkaroq va kashta tikish usuli o‘ziga xos bo‘ladi. Marg‘ilon do‘ppilarning gullari ham oq ipak bilan tikiladi. Gul naqshlari bo‘rtib turadi. Bunday ko‘rinishni hosil qilish uchun esa naqsh chizig‘i bo‘ylab chok ostidan yo‘g‘on xom ipak to‘shab tikilgan. Namga chidamli qog‘oz yoki mato juda ingichka qilib qirqib, kashta guli tagida qoladigan qilib tikilgan. Do‘ppilarning tepa va kizak qismlariga pilta qo‘yib tayyorlangan. Marg‘ilon do‘ppilariga ham maxsus tayyorlangan jiyaklar tikib, bezak berilgan.

XIX asrning o‘rtalaridan keyin xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan Marg‘ilon do‘ppilari keng tarqaldi. Do‘ppining shakli to‘rtburchak, tepasi ozgina ko‘tarilgan, kizagi ingichkaroq qilib tayyorlangan. Do‘ppining tepa qismi ingichka kashta yo‘li bilan to‘rt karjga ajratilgan. To‘rttala qismiga bir xil gul nusxalari yoki gul shoxida o‘tirgan qushcha, ba‘zida esa yozuvlar bilan (“Farg‘ona tong otguncha”) kabi gul tikib bezatilgan. Kizagiga tepaning guliga mos keladigan nusxa tikilgan. Gullar ipak iplar bilan tikilgan.

Qo‘qon do‘ppilarining yosh bolalar, xotin-qizlar kiyishiga mo‘ljallangan turlari ham, asosan “piltado‘zi” usulida tayyorlangan, ularga gul nusxalari ancha sayqal berib tikilgan, rangli iplar ishlatilgan. Do‘ppi gullari ninaning orasiga ko‘zmunchoqlar ham qadalgan. Kizagiga ipak yoki paxta ipdan tayyorlangan “chalma” jiyaklar qadab tikilgan. Bunday do‘ppilarning avrasiga qora satin, ipak, astariga satin, chit yoki bo‘z ishlatilgan. Piltado‘zi texnikasida tayyorlangan, piltasiga, asosan qog‘oz tiqilgan. Kashtalar, asosan rangli ipak iplar bilan tikilgan. Kizakning tomonlariga bir xil gul tanlangan, tepa qismining to‘rttala tomoniga shu gulga mutanosib gullar tanlangan.

Ko‘rinishi dumaloq, tepasi konussimon, uchi, kizagi ba‘zida keng yoki ingichkaroq qilib tikiladigan do‘ppining ham erkaklar, ham turli yoshdagi o‘g‘il bolalar ko‘p kiyganlar. Bunday do‘ppilarning avrasiga kanava, bo‘z matolar ishlatilgan. Astariga 3-4 qavat bo‘z, satin, ba‘zan doka kabi matolar ham ishlatilgan. Kashta (takdo‘zi) texnikasida, “iroqi” kashta qo‘l chokining “sanama-iroqi”, “chizma-iroqi” usullarida tikilgan. Kashta tikishda rangli ipak iplar ishlatilgan. Do‘ppi kizagining cheti keng yoki ingichka, har xil jiyaklar bilan bezatilgan. Jiyaklar matoga qo‘l kashta usulining “yo‘rma” choki bilan yoki —iroqi” choki bilan tikib tayyorlangan. Do‘ppilarga qora paxta ipidan tayyorlangan “chalma” jiyaklar ham qadalgan. Ba‘zida esa kizakning jiyak o‘rnidagi qora yo‘l ichiga kashta tikilgan.

O‘tgan asrlarda Toshkentda erkaklar uchun mo‘ljallangan do‘ppilarning ko‘p xillari mavjud bo‘lgan. Tepasi konussimon, kizagi keng, enli jiyak (4-5 sm) tikiladigan do‘ppilar bo‘lgan-ki, ular och va to‘q yashil ipak matolar, satin, ba‘zida esa yashil bo‘zdan tayyorlangan. Kashta gullari do‘ppi tepasining to‘rt tomoniga bir xil, kizagiga ham shu gullarga mos naqshlar tanlab tikilgan.

Erkaklar kiygan do‘ppining yana bir turi to‘rt tomonli tepasi baland, konussimon ko‘rinishida, kizagi ham enli, kizagining chetiga to‘q rangli matodan jiyak tikilgan do‘ppilar “piltado‘zi” texnikasida tayyorlangan chokda kashta tikilgan do‘ppi, “takdo‘zi” kashta tikish usulidan foydalanib gul tikilgan.

“Piltado‘zi” texnikasida tayyorlangan dumaloq “takdo‘zi” kashta usulida, kashta chokining “iroqi”, “xomdo‘zi” xillaridan foydalanib gul tikiladigan gilam do‘ppilarni ham erkaklar kiyganlar. Bunday do‘ppilarga oq bo‘z yoki kanava ishlatilgan. Astar paxtadan tayyorlangan matodan bo‘lgan.

XX asrning birinchi yarmidan keyin ayollar kiyishga mo‘ljallangan do‘ppilar ko‘plab tikilgan. Kizagining chetiga ingichka qora baxmaldan jiyak, “takdo‘zi” kashta usuli bilan “chakmato‘r” chokida kashta tikilgan do‘ppilar udum bo‘lgan. Do‘ppilarga yashil ipak, bo‘z, satin matolari ishlatilgan. Do‘ppining tepasi kashta yo‘li bilan to‘rt karjga ajratilgan do‘ppining oq foniga gullar tikilgan. Ayollarga mo‘ljallangan do‘ppilarning yana bir xili “iroqi” do‘ppilardir. Bunday do‘ppilar to‘rga yoki kanavaga tikilgan. “Piltado‘zi” texnikasidan kashtaning “takdo‘zi” usulida foydalanilgan. Do‘ppilarning ko‘rinishi to‘rtburchak, kizagi uncha keng bo‘lmagan.

Samarqandning —urgut” do‘ppilari barcha davrlarda o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Samarqandda qora satinga tikilgan tepasi baland, gumbazsimon, kizagi keng, enli (3-3,5 sm) to‘q rangli matodan jiyak tikiladigan do‘ppilarni erkaklar sevib kiyganlar.

XX asrning boshlaridan ko‘rinishi dumaloq, tepasi tekis, kizagi baland, “piltado‘zi” texnikasida tikiladigan do‘ppilar ayollar va qizlar o‘rtasida keng tarqaldi. Bunday do‘ppilarga asosan sariq qizil rangli ipak paxtadan tayyorlangan ipak matolar ishlatilgan. Do‘ppilarning kizak qismiga rangli ipaklar bilan kashta tikilgan. Gul tikishda, asosan, “kandaxayol”, “yo‘rma”, “xomdo‘zi” kashta choklaridan foydalanilgan. Ba‘zan kizak o‘rniga gul tikilgan va popukchalar qadalgan. Tapa va kizak qismining gullari orasiga yaltiroq metal bargak”lar va munchoqlar qo‘shib tikilgan. Xuddi shunday do‘ppilarni kichik yoshdagi qizlar ham kiyishgan.

Samarqand viloyatida do‘ppilar qirmizi, yashil, siyohrang ipak yoki satin va chetdan keltirilgan alvondan tayyorlanib, albatta, kashta tikilgan. Naqshlarida to‘g‘ri chiziqlar yoki ko‘p bargli “oftobparast”, “qo‘chqorshox”, “chorgul” tasvirlari ustunlik qilgan.

Samarqand do‘ppilarning ko‘p qismi piltado‘zi usulida tayyorlangan tepa qismi va taglamasi yonma-yon birlashtirilib, ular orasiga temir piltalar orqali qog‘oz yoki paxta naychalar kiritilgan, natijada do‘ppi yuzasida bo‘rtma burmalar hosil qilingan.

Piltado‘zi usulida Surxondaryo viloyatining ko‘p tumanlarida do‘ppilar tikiladi. Bu usul avvalgi, eski namunalaridan

qovurg‘alarining kichikligi bilan farqlanadi. Naqsh kompozitsiyasida chiziqlarning tik bo‘linishi va to‘g‘riligi kabi xususiyatlar ustunlik qiladi.

Samarqand do‘ppilari orasida Urgut do‘ppilari o‘ziga xos: qalpoq chetlari keng, tepasi yassi va kichik bo‘ladi. Naqsh bir yerda yig‘ilgan doiralarda, ularning unsurlari tagdagi to‘rt yoki sakkiz qismlarda joylashtirilgan. Qoramtir, odatdagi siyoh rang fon va yorqin bezak Urgut do‘ppilariga xos. To‘g‘rirog‘i, bu yirik ko‘lamli, zamonaviylashtirilgan butalarda ko‘rinadi.

Buxoro uslubiga xos do‘ppilarning eng mashhuri “zardo‘zi” do‘ppilardir. O‘zbek xalqining juda qadimiy kashtachilik merosi turlaridan biri bo‘lgan zardo‘zlik san‘atini buxorolik hunarmand chevar ustalar hozirgacha saqlab kelmoqdalar. Buxoroning zardo‘ppilari hamisha mashhur bo‘lib, bezaklarga boyligi bilan ajralib turgan. Hozirgi kunda asosiy material sifatida fabrikada ishlab chiqariladigan sim - zar qo‘llaniladi, buxorolik zardo‘zlar uni “kalabatun” deyishadi. Zardo‘z do‘ppilar tayyorlash uchun faqat yumshoq (siyohrang, yashil, ko‘k, zangori, qora) barqutlar ishlatiladi. Zardo‘zlar tikishning ikki usulini qo‘llashadi, ya‘ni zardo‘zi- zamindo‘zi bunda fon yaxlit zar bilan qoplanadi, zardo‘zi-guldo‘zida esa chizma qilib tayyorlangan qalin qog‘oz mato foniga qo‘yilgan holda tikiladi.

Buxoroliklarning o‘ziga xos sermazmun kashta naqshlari g‘oyat nafis, tekis texnik uslublari, uzoq davrlar mobaynida sayqal topgan rang-barang kashta choklari shu san‘atning tarixiy rivojlanish jarayonida muhim kasb etadi. Kashtachilikning zardo‘zi uslubida gullar tikib bo‘lingach, ularga qo‘shimcha ipaklar, pulakchalar (pirpiraklar), turli munchoqlar, zargarlar tomonidan maxsus tayyorlangan toshlar bilan bezatilgan to‘g‘alar va zargarlik taqinchoqlariga o‘xshash olmos qubbalar bilan bezatilgan.

Qashqadaryoda juda qadimdan iroqi nusxa do‘ppilar tayyorlab kelingan. Bunday do‘ppilarga iroqi gul tikish usullarining asosan, “sanama”, “bosma” chok xillari ishlatiladi. Do‘ppilarga maxsus jiyaklar qadalib, bezak beriladi. Do‘ppilarning ko‘rinishi (shakli) esa yarim konussimon bo‘ladi. O‘ziga xos tayyorlanish texnologiyasiga ega bo‘lgan bunday do‘ppilarni Shahrisabz va Kitob tumanlarida “qalpoq” deb ataydilar. Toshkentda esa bunday do‘ppilar “gilamdo‘ppi” deyiladi.

Qashqadaryoda —iroqi” do‘ppilardan tashqari “piltado‘zi”, yoki “to‘ldirma” deb nomlangan do‘ppilar keng iste‘molda bo‘lgan. Bunday do‘ppilarni tayyorlashda “piltado‘zi” usuli qo‘llanilgan. Pilta sifatida asosan, qog‘oz ishlatilgan. Do‘ppining piltalari bo‘ylab “tekis” va “ilmoq” qo‘l kashta choki bilan gullar tikilib, ular “to‘ldirma do‘ppi” deb atalgan. To‘ldirma do‘ppilar bilan birgalikda xalq boshidan tushirmay, sevib kiygan gilam do‘ppilar yoki “iroqi” do‘ppilar ham keng iste‘molda bo‘lgan. Bunday do‘ppilar kanavaga, bo‘z matoga, “bo‘ronboy” deb nomlangan to‘r matoga “takdo‘zi” usulida —iroqi” kashta choki bilan tikib tayyorlangan.

Shahrisabzning gilam do‘ppisi konussimon shakli bilan farqlanadi. Bu do‘ppilardagi kolorit oq, qora, qizil, sariq yoki siyohrang ranglar uyg‘unligida hosil bo‘ladi. Ba’zida ko‘pgina naqshlar qizil-qora chizgilar bilan oq fonda beriladi. Shahrisabz va Kitob do‘ppilaridagi naqshlar ikki turga bo‘linadi. “Sanama” do‘ppisidagi naqsh yonlama qator qilib joylashtiriladi, “chizma” do‘ppida esa naqsh do‘ppi tepasi aylanasida yig‘ilib, aylana shaklida tik yo‘nalishda taraladi.

Surxondaryo do‘ppilaming “piltado‘zi” yoki

“to‘ldirma”, “pulakcha” yoki —tangacha” va “shabanok” yoki —munchoqli” do‘ppi deb atalgan turlari ko‘p tarqalgan bo‘lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay kelmoqda. Bunday

do‘ppilaming ko‘rinishi dumaloq shaklda bo‘lib, kizagining adog‘iga “yo‘rma” usulida tayyorlangan jiyak tikiladi. “Piltado‘zi” yoki “to‘ldirma”, —pulakcha” yoki —tangacha” deb nom olgan do‘ppilami yigitlar va erkaklar kiyadilar. Rang-barang ipaklar bilan kashta tikib tayyorlanadigan do‘ppilarning “piltado‘zi” deb nomlanishiga sabab, ularga tikiladigan kashta pilta chiziqlari bo‘ylab tikiladi. Aynan shu do‘ppilaming “to‘ldirma” deb nomlanishiga sabab, ularga kashta tikish usulining —sanama chok” yordamida rangli ipaklar bilan pilta chiziqlari bo‘ylab to‘ldirib tikiladi.

Surxondaryo do‘ppilari kizagining barchasi jiyak qadalib, bezatiladi. Do‘ppilarning jiyagi alohida tayyorlanib olinadi. Jiyaklar kashta chokining “yo‘rmado‘zi” usulida gul nusxalari solib tikiladi. Jiyak oddiy paxtadan tayyorlangan gazmolga maxsus silliq, uchi qayrilgan bigiz yordamida tikiladi. Jiyak tayyorlanadigan mato esa uzunligi jiyakning uzunligidan katta, eni ixtiyoriy, qulay kenglikda bo‘lgan maxsus kergiga tarang tortib qo‘yilgan bo‘ladi. Erkak va ayollar do‘ppilariga mo‘ljallangan jiyaklar ularning gul nusxalariga qarab farqlanadi. Do‘ppi tikilib, tayyorlangach, jiyak tutiladi, jiyagining tutashgan joyiga esa turli rangdagi ipaklardan popukcha qadab bezatiladi. Boysun do‘ppilariga o‘xshash to‘ldirma do‘ppilar Dashnobodda ham keng tarqalgan bu do‘ppilar rangi, gul naqshlari bilan Boysun do‘ppilaridan ozroq farq qilsa-da, bir-biriga o‘xshaydi. Dashnobodda ko‘rinishi dumaloq, tepasi konussimon gilam do‘ppilar ham tikilgan. Do‘ppilar “piltado‘zi” texnikasida “takdo‘zi” kashta usuli bilan gilam nusxa qilib tikilgan.

Ayollar kiyadigan zar do‘ppi chevarlari Buxoro zardo‘zlari hisoblanadi. Bu do‘ppi ham tepa, kizak va jiyakdan iborat. Do‘ppining ayrim qismlarini tayyorlash uchun ba‘zan ish ixtisoslashtiriladi: bichish, gul nusxasini chizish, gul tikish, jiyak tayyorlash, pilta urish, yelimplash. Do‘ppining uchchala qismini bir-biriga ulash va hokazolar ixtisoslashgan turli chevarlar tomonidan bajarilgan.

Xorazmda do‘ppilar “takya”, “toki”, “teyxa” deb ataladi. Xorazm uslubida tikiladigan do‘ppilaming tepasi yassi, duxoba, shoyi

va zarbof matolardan tayyorlanib, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xorazm do‘ppilarning “zar takiya”, “papakli takiya”, “manatli takiya” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan turlari mavjud. Ularning ko‘rinishi, asosan dumaloq shaklda bo‘lib, ba‘zilariga qog‘oz yoki paxtadan pilta qo‘yib tayyorlangan bo‘lsa, ba‘zilar qalin qog‘oz qo‘yib tikilgan. Ular asosan chetdankeltirilgan

“farangi”, “parcha”

kabi gazlamalardan tayyorlangan. Astariga oddiy paxtadan

tayyorlangan mahalliy matolar ishlatilgan. Kizagiga ipakdan tayyorlangan chalma jiyaklar tutilgan. Jiyaklarning rangi asosan och qizgish rangdan to‘q sariq ranggacha bo‘lgan. Jiyakning birlashgan joyiga popuk qadab bezalgan. Bezatilgan popuklar jiyakning turiga, eniga do‘ppilarning xiliga qarab uzun va kalta qilib tanlangan. Xorazm takiyalari ham boshqa viloyatlarning do‘ppilaridan o‘ziga xosligi va mukammal tayyorlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Xorazm do‘ppilariga turli zargarlik buyumlari, taqinchoq bezaklar qo‘shib tikilgan.

Taxya, teyxa, chumakli taxya, kush - bular Xorazm erkak va xotin-qizlar do‘ppilarining nomlari. Ular qizil va qora yo‘l-yo‘l olachadan baland, konussimon shaklda tikilgan. Taxya hali turmushga chiqmagan qiz uchun, qora barqutdan tayyorlangan. Chumakli taxya ancha uzun tikilib, yosh kelinchakning sepida eng zarur buyum hisoblanadi.

Xorazm do‘ppilarining ham qachon paydo bo‘lganligi ma’lum emas. Tarixiy manbalar Xorazm teyxalarning juda qadimiy bosh kiyim ekanligini ko‘rsatadi. Xorazm do‘ppilarning o‘rni juda chetga surilib qolgan. U durdonalar asosan ansambllarda, xalq teatrlari va muzeylarda saqlanib qolgan.

Xotin-qizlar uchun keng iste‘molga bo‘lgan ko‘rinishi dumaloq, tepasi yassi, kizagi baland do‘ppilarning kizagi chetiga ba‘zida ingichka qizil jiyak tikilgan. Jiyakning chetiga popuk qadalgan. Bunday do‘ppilarni tayyorlashda qo‘l va mashina ishidan foydalanilgan. Avrasiga parcha, astariga esa paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Astari va avrasining orasiga karton qog‘oz qo‘yilgan.

Ayollarga mo‘ljallangan do‘ppilarning yana bir xili ko‘rinishi dumaloq tepasi yarim yoysimon kizagi keng, kizagining chetiga “chalma” jiyak tikilgan do‘ppilardir. Ularning jiyagida sariq va yashil yo‘llari bo‘lgan. Jiyakning chetiga popuk qadalgan. Bunday do‘ppilar “piltado‘zi” usulida tayyorlangan. Piltasiga qog‘oz yoki paxta tikilgan. Avrasiga parcha, astariga esa paxtadan tayyorlangan mato ishlatilgan.

Matosi parcha, astari esa paxtadan tayyorlangan, shakli dumaloq, tepasi konussimon, kizagi keng, kizagining chetiga keng va ingichka “chalma” jiyak, uning tutashgan joyiga popuk tikilgan, “piltado‘zi” texnikasida tayyorlangan, piltasiga paxta yoki qog‘oz ishlatilgan do‘ppilarni ham ayollar va qizlar sevib kiyganlar.

XIX asrning oxiri-XX asrning boshida do‘ppilarning estetik ko‘rinishi yana sayqallanib ketdi va yangi turdagi ko‘plar jozibador do‘ppi xillari, nusxalari hamda shu do‘ppilarga tikiladigan yangicha gullar, naqshlar paydo bo‘lgan. Pilta qo‘yib tayyorlangan do‘ppilarning esa inson sihat-salomatligiga foydasi yanada ortdi. Qog‘oz yoki paxtadan piltalab tikilgan do‘ppilarning boshi sovuqdan va quyosh nuridan saqlash darajasi yuqori bo‘ladi.

#### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-martagi —Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘atini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-4210-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi —Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmoni.
3. Rahimova M., Bozorova M. “Do‘ppido‘zlik” to‘garagi o‘quv qo‘llanmasi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi —Barkamol avlod” Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi. Toshkent-2014.
4. Shoyoqubov Sh. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati. Bezakli albom. —O‘zbekiston” NMIU - 2009.
5. Davlatova S. Mustaqillik yillarida Surxon vohasi aholisi an‘anaviy hunarmandchiligining rivojlanish xususiyatlari. —Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma‘naviy madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. Termiz - 2019.